

UDK: 78.01:781.7(575.1)

YOSHLAR ORASIDA O'ZBEK MUSIQA MADANIYATINI TARG'IB ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Raximov Kodirjon Karimberdiyevich

Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

gmail: kodirjonraximov206@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlar orasida o'zbek musiqa madaniyatini keng targ'ib etish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari, sohani o'rganishda muhim ahamiyat kasb etayotgan metodologik asoslar, shuningdek yurtimizda amalga oshirilayotgan musiqa madaniyatini yuksaltirish, tarixiy-madaniy va diniy-ma'rifiy qadriyatlarni qayta tiklash va buyuk ajdodlarimizning ma'naviy-axloqiy, madaniy merosini o'rganish masalalari muhokama qilingan.

Kalit so'zlar. Musiqa, musiqa madaniyati, xalq og'zaki ijodi, formatsiya, konsepsiya, milliy qadriyatlar, ma'naviyat.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR PROMOTING UZBEK MUSICAL CULTURE AMONG YOUTH

Abstract. This article presents the results of research conducted on the wide promotion of Uzbek musical culture among youth, highlights the methodological foundations that play an important role in studying this field, and discusses issues related to enhancing musical culture in our country, restoring historical, cultural, and religious-educational values, as well as studying the spiritual, moral, and cultural heritage of our great ancestors.

Keywords: music, musical culture, folk oral creativity, formation, concept, national values, spirituality.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОПУЛЯРИЗАЦИИ УЗБЕКСКОЙ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ СРЕДИ МОЛОДЁЖИ

Аннотация. В данной статье представлены результаты исследований, проведённых по широкому продвижению узбекской музыкальной культуры среди молодёжи, раскрыты методологические основы, имеющие важное значение при изучении данной сферы, а также рассмотрены вопросы повышения уровня музыкальной культуры в нашей стране, восстановления историко-культурных и религиозно-просветительских ценностей и изучения духовно-нравственного и культурного наследия наших великих предков.

Ключевые слова: музыка, музыкальная культура, устное народное творчество, формация, концепция, национальные ценности, духовность.

KIRISH

Musiqa - hech narsa bilan o'lchab, solishtirib bo'lmaydigan beqiyos ilohiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan, ellarni-ellargga, dillarni-dillarga bog'lovchi, kishi estetik didini

tarbiyalovchi hamda madaniy saviyasini oshiruvchi mo'jizaviy vositadir. Yurtimizda amalga oshirilayotgan yangilanish va rivojlanish siyosatining asosiy strategik maqsadi mustahkam ma'naviy-axloqiy qadriyatlar negizida yangi jamiyat barpo etishdan iborat bo'lib, musiqiy madaniyatni yuksaltirish, olib borilayotgan islohotlar samaradorligini oshirishda, mamlakatda demokratik tamoyillarni qaror toptirishda hamda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

So'nggi yillarda olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlar natijasida shu narsa aniq bo'lmoqdaki, vatanimiz hududida qadimgi sivilizatsiyaning paydo bo'lishi va shakllanishi uzoq asrlarni o'z ichiga oladi. Vatanimizning eng qadimgi davrlariga - ilk tosh asriga oid bo'lgan Selung'ur, Ko'kbuloq, Qo'tirbuloq, Uchtut kabi makonlar ochildiki, ulardagi topilmalarga qarab, haqli ravishda Markaziy Osiyo odamzodning ilk ajdodlari paydo bo'lgan mintaqaga kiradi, degan g'oyani ilgari surish imkoniyati tug'iladi. Bu mintaqada yashagan qadimgi qabilalar baliqchilik, hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachilik madaniyatlarini egallaganlar. Eslatib o'tamiz ilk musiqiy folklor namunalari asosan o'troq xalqlar ijtimoiy hayotida uchragan.

O'zbek xalqiga xos Markaziy Osiyo ikki daryo oralig'idagi irqning shakllanish davri, makoni va tarixi masalalarida fanda yaqinlashib yagona fikr yo'q edi. Bir guruh olimlar bu irq bundan 6-8 ming yil ilgari, ikkinchi guruh mutahassilar 3 ming yil ilgari shakllangan desa, uchinchi bir guruh olimlari esa XVI asrda shakllandi deb hisoblar edilar. Antropologik izlanishlar natijasida mualliflar ikki daryo oralig'i irqining shakllanishi, juda boy antropologik ma'lumotlar asosida, bundan 2200-2300 yil ilgari boshlanganini isbotladilar. Qator ilmiy asarlarda o'zbek xalqining shakllanishida sakkiz muxim davr sanab o'tilardi. Bular qatorida Ahmoniylar, Iskandar, Arablar va Mo'g'ullar istilosi tilga olinadi. Haqiqatdan, bu zabt etishlar Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatiga, tiliga, turmush tarziga albatta shu bilan birga ajdodlarimiz musiqa madaniyati shakllanish va rivoj topish omillariga o'z ta'sirini o'tkazgan. Ammo bu yurishlarning mahalliy xalqlarni irqiy va etnik tarixiga bo'lgan ta'siri kam bo'lganini alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz.

Bevosita Markaziy Osiyoda ibtidoiy jamoa tuzumi davriga oid tadqiqotlar hususida to'xtar ekanmiz, A.Okladnikov, V.Masson, V.Ranov, YA.G'ulomov,

O'.Islomov, A.Asqarov, M.Qosimov va boshqa olimlarning Markaziy Osiyo hududida ibtidoiy odamning tarqalish jarayoni, qadimgi makonlarning geografik joylashuvi, toshdan qurollar yasash uslublari xo'jalikning rivojlanishi va oilalarning paydo bo'lishi, ibtidoiy mafkura, xo'jalik turlari, metallning hunarmandchilikka kirib kelishi masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Bu davrni o'rganishning o'ziga xos xususiyati, uni qadimgi mualliflar qoldirgan yozma manbalar asosida o'rganib bo'lmaydi. Shuning uchun ham bu davr tarixini o'rganishda arxeologiya, antropologiya, etnografiya kabi fanlarning ahamiyati kattadir. Bu fanlar to'plagan materiallarni solishtirish usuli bilan uzoq o'tmishdagi moddiy va ma'naviy madaniyatning ko'pgina tomonlarini tiklash mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Akademik A.Muhammadjonov yozishicha O'rta Osiyo xalqlarining, Markaziy Osiyoda eng qadimgi davlat uyushmalarining paydo bo'lishi juda muhim masaladir. "Hozirgi davr davlatchilik tariximiz tub burilish pallasiga kirgan bir paytda o'zimizning zamon va makondagi o'rnimizni aniq belgilab olishimiz lozim" degan fikrlar ayni haqiqatdir. Chunki Markaziy Osiyodagi ilk davlat uyushmalari haqidagi yozma ma'lumotlar juda kam saqlanib qolgan. Ba'zi bir ilmiy adabiyotlarda Markaziy Osiyoda Eron ahmoniylarigacha qadimgi davlat uyushmalari bo'lganmi yoki bunday davlat uyushmalari mavjud emasmi degan muammo hozirgacha to'la yechimini topgan emas. Ma'lumki, Markaziy Osiyoda ilk davlat tuzumi vujudga kelishini yoritib beradigan asosiy yozma manba "Avesto" va qadimgi dunyo mualliflari qoldirgan ma'lumotlardir. Mavjud yozma manbalar, arxeologik tadqiqotlar bilan solishtirilganda bu makonda qadimgi davlat uyushmalari bo'lganligini isbotlovchi ishonchli dalil, ashyolar mavjud ekanligi ilmiy asosda tahlil qilib beriladi. O'tgan asrning oxiri va asrimizning boshlarida Avestodagi ma'lumotlar, Geradot va Gekatey asarlari "Katta Xorazm" shuningdek, Ktesiyning Qadimgi Baqtriya podsholigi haqidagi ma'lumotlari Markaziy Osiyoda ilk davlat uyushmalarining paydo bo'lishi va ushbu davr musiqa madaniyatiga oid muammolarini o'rganish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotchilarimiz ilmiy xulosalarida bu davlatlarning shaklanish jarayoni Eron ahmoniylarigacha bo'lgan davrda, deb hisoblaydilar va uni miloddan avvalgi 9-7 asrlar bilan bog'laydilar (M.Dunker, V.Tomashek, F.Alptxaym,

S.P.Tolstov, M.M.Dyakanov, I.M.Dyakanov, B.G.G'ofurov, A.Sagdullaev va boshqalar). Yunon olimi Geradotning ma'lumotlariga qaraganda, Markaziy Osiyoda "Har tomoni adrlar bilan o'ralgan tekislikda qachonlardir xorazmiylar yashagan". Ko'pchilik tadqiqotchilar bu markazni hozirgi Xorazm o'rnida bo'lmasdan, janubroqda, Marv (Turkmaniston) yoki Xirotda (Afg'oniston)da bo'lgan - deyishadi. Biroq, mil.avv. 2 ming yillikning o'rtalariga yaqin davrda "Katta Xorazm" davlati mavjud bo'lganligiga shubha qilmasa bo'ladi. Sopollitepadagi yana ilk davlat uyushmasi Qadimgi Baqtriya davlatidir. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, uning tarkibiga So'g'd va Marg'iyona ham kirgan. Yunon muallifi Ktesiy Baqtriya haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Tarixchi olim Baqtriya davlatidagi ko'plab shaharlar, mustahkam poytaxt shahar Baqtro (Balx), Baqtriya podshosi Oksiart, uning bitmas tunganmas boyliklari haqida hikoya qiladi. Gerodot Baqtriyaning Misr va Bobil kabi yirik davlatlar qatorida tilga oladi. Baqtriyaning tabiiy boyliklari undan tashqari hududda yoki Old Osiyoga qadar ham mashhur edi.

Arxeologik tadqiqotlarni o'rganish orqali shu narsalar ayon bo'ldiki, saroy rasmiy tantanalari va turmushda musiqa katta ahamiyatga ega bo'lgan. Nay, ud, nog'ora, arora, qayrilgan shox shaklidagi karnay, kamoncha bilan chalinadigan asboblarning mavjud bo'lgan. Qo'shiqchilar, raqqoslar, ko'zbo'yamachilar bo'lgan. Afrosiyob shaharchasidan topilgan loydan yasalgan haykalchalar, shaklli tasvirlar, moychiroqlar va boshqa buyumlar o'ziga alohida e'tiborni tortadi. Bu davrda Xind daryosining yuqori oqimidagi viloyatlar va Markaziy Osiyo xalqlari davlat ishlarida oromiy yozuvidan foydalanganlar. Keyinroq esa oromiy yozuvidan to'rtta yozuv ajralib chiqdi. Bular parfiya, so'g'd, baqtriya va Xorazm yozuvlari bo'lib, ular Markaziy Osiyo hududida salkam ming yil (arablar kelgunga qadar) saqlanib qoldi.

O'zbek xalqining shakllanishidagi ikkinchi muhim davr bu IX-XII asrlar hisoblanadi. Bu davrda Markaziy Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda hozirgi o'zbeklarga xos qiyofa mahalliy aholining asosiy qismini tashkil etadi. Ilgari biz bu jarayonni XI-XII asr etnik jarayonlari bilan bog'lar edik. Keyingi yillarda shu davr materiallarini ikki tarixiy davrga IX-X va XI-XII asrlarga ajratish muvaffaq bo'lindi. Natijada O'zbekiston hududida IX asrda, bizning tadqiqotlar bo'yicha, aholining antropologik qiyofasida keskin o'zgarishlar yuz berganligini kuzatdik. Markaziy

Osiyoda, jumladan, O'zbekistonda mahalliy aholining tili uch marta o'zgardi SHarqiy eron tillari o'rniga g'arbiy eron tillari (fors tili) va eramizning birinchi asrlaridan turkiy tillar keng tarqala boshladi. O'zbek xalqining shakllanishida uchinchi muhim davr XV asr oxiri va XVI asr hisoblanadi. Bu davrda Markaziy Osiyoga Dashti Qipchoq o'zbeklari kirib keladi va ular mahalliy aholiga o'z nomini beradi.

Tariximizning faxrli davrlaridan yana biri sharq Renessans davri bo'lib, bu davr bobokalonimiz Amir Temur hukmronligi va asos solgan buyuk saltanatida fan, san'at, madaniyat gullab yashnashi uchun yaratilgan omillar asosida vujudga kelgan sivilizatsiyani e'tirof etmay bo'lmaydi. Ushbu davrda musiqa madaniyati sohasida jadal rivojlanishlar Temurning saroy musiqachisi Abdulqodir Marog'iy, ungacha bo'lgan maqomlar tushunchasini aloxida ladlar tushunchasidan duvazdaxmaqom ya'ni bir turkumga jamlashtirilgan maqomlar tizimi kabi yuksak musiqa san'atiga tegishli monumental asar vujudga keldi. Madaniy hayot gullab yashnadi.

Xalqimiz siyosiy mustaqillik va ozodlikni qo'lga kiritgach, o'z taqdirini chinakam egasi, o'z tarixining ijodkori, o'ziga xos milliy madaniyatining sohibiga aylandi. Tarixdan ma'lumki, musiqa ijrochilik san'ati qadim davrlardan buyon mavjud bo'lib, bizgacha uzoq, taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan holda, o'zining hozirgi mukammal ko'rinishida etib keldi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Farobiy o'zining "Katta musiqa kitobi"da, Safiuddin Urmaviyning musiqiy risolasida, Abdulqodir Marog'iyning "Jami al-alxon fi-ilm al-musiqiy" risolasida, Axmadiyning "Sozlar munoazarasi" nomli asarida, Zaynullobiddin Xusayniy "Risolai dar bayoni qonuni va amaliy musiqiy" risolasida, Amuliy "Musiqiy risola"larida musiqa cholg'ularini o'rganish bilan birga, uni tadqiq etish masalalari ham to'xtalib o'tganlar va o'z davrlarning musiqiy cholg'ulari haqida ma'lumotlar berishgan.

Hozirgi kunda ijro etilayotgan yalla, ashula, katta ashula, doston, cholg'u kuylari va maqomlar milliy musiqaning etuk janrlari xisoblanadi. Mumtoz musiqa deganda, millatga, ya'ni, o'zbek xalqiga mansub, uning etuk sozanda bastakorlari tomonidan asrlar davomida yaratilgan musiqa san'ati namunalari ko'zda tutiladi. Ushbu musiqa boshqa musiqa ijodiyoti namunalaridan bir necha o'ziga xos xususiyatlar bilan farqlanadi.

O'zbek an'anaviy musiqasi o'tmishdan ikki yo'nalish, ya'ni bir-biridan paydo bo'luvchi va birbirini to'ldiruvchi, shu bilan birga o'zining alohida xususiyatlari va sifatlariga ega bo'lgan yo'nalishlardan tashkil topgan. Bular birinchisi, musiqa folklori bo'lsa, ikkinchisi ijodkorlarning musiqiy tafakkuri bilan to'ldirilgan mumtoz musiqa yo'nalishidir. Har ikki yo'nalishning o'zgacha uslubi, yo'nalishi, hisobi bor.

1. Og'zaki ijodkorlik mumtoz musiqa xalq tomonidan yaratilib, og'izdan og'izga, avlodan avlodga, ustozdan shogirdga o'tib kelgan ijod maxsulidir. Qadim zamonlarda ilk bor musiqa namunalari omma (xalq) tomonidan ijod qilingan.

2. An'anaviylik mumtoz musiqa namunalari an'ana sifatida saqlanib, rivojlanib kelmoqda.

XULOSA

Tadqiqot davomida sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, milliy va xorijiy adabiyotlar, internet saytlari bilan tanishib chiqib, quyidagi xulosaga keldim. An'anaviy musiqa badiiy jarayon bo'lib, unga xalq tomonidan yaratilagan, asrlar osha ustoz shogird an'anasi asosida bizgacha yetib kelgan xalq musiqa ijodi yoki musiqa folklori va yetuk sozanda bastakorlar tomonidan ijod etilgan mumtoz musiqasi kiradi. Bu ijodiyot namunalari og'zaki an'anada saqlanib, sayqal topib, barkamol musiqa asari sifatida rivojlanib kelmoqda. Yoshlar orasida o'zbek musiqa madaniyatini targ'ib etish tizimini takomillashtirish milliy madaniy merosni asrash, yosh avlodning ma'naviy-estetik didini shakllantirish hamda milliy o'zlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, targ'ibot tizimida ta'lim, madaniyat va axborot makonining o'zaro uzviy hamkorligi yetarli darajada yo'lga qo'yilgandagina kutilgan natijalarga erishish mumkin.

Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish orqali yoshlar orasida o'zbek musiqa madaniyatini keng targ'ib etish bo'yicha quyidagi g'oyalarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, ta'lim muassasalari, madaniyat markazlari va ommaviy axborot vositalari o'rtasida integratsiyalashgan hamkorlik tizimini yaratish orqali o'zbek musiqa madaniyatini yoshlar orasida uzluksiz va tizimli targ'ib etish.

Ikkinchidan, milliy musiqa namunalari asosida raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va interaktiv loyihalarni keng joriy etish orqali yoshlarning qiziqishini oshirish va ularning faol ishtirokini ta'minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Харина Г.В., Топоришев М.С. Роль музыкотерапии в поддержании комфортных условий жизнедеятельности человека // Научное обозрение. Педагогические науки. 2023. № 6. С. 53-57
2. Nazarov A. Forobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1995. – 131 b.
3. Mutalov S. "O'zbek xalq musiqasi tarixi." – T.: Fan, 2005.
4. Rashidov M. "Mumtoz musiqa san'ati va uning o'ziga xosligi." – T.: San'at, 2012.
5. Matyoqubov Otanazar. Shashmaqom: O'zbekistonning musiqiy merosi". O'zbekiston Milliy Kutubxonasi. <https://www.natlib.uz>
6. Joseph Nye. "Madaniy diplomatiya va musiqaning roli". Harvard University Press. <https://www.hup.harvard.edu>